

**“BACHADON ICHI INFEKSIYASI FONIDA HOMILA VA
YANGI TUG’ILGAN CHAQALOQLARDA YO’LDOSH HAMDA
O’PKALAR SHIKASTLANISHINING PREDIKTORLARINI
ISHLAB CHIQISH”.**

Sh.H. Abdulloyev

UDK: 616-091-053.13-022

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Mavzuning dolzarbligi: Bachadon ichi infeksiyalari bugungi kunda perinatal kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jahon va milliy statistik ma’lumotlariga ko‘ra, homila ichi infeksiyalar homila rivojlanishining buzilishi, muddatidan oldin tug‘ruq, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda og‘ir adaptatsion holatlar hamda neonatal o‘limning muhim sabablaridan hisoblanadi. Infeksion omillar yo‘ldosh to‘qimalarida strukturaviy va funksional shikastlanishlarni yuzaga keltirib, uning trofik, respirator, transport hamda himoya vazifalarining izdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Bunda xorion vorsinlari va desidual to‘qimalarda rivojlanadigan yallig‘lanish, mikrosirkulyator buzilishlar, trombotik jarayonlar va infarkt o‘choqlari homila gipoksiyasi hamda homila o‘sishining cheklanishiga olib keluvchi asosiy morfologik substratni tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, yo‘ldoshning patomorfologik tekshiruvi homila ichi infeksiyalarini tashxislash, ularning og‘irlik darajasini baholash va perinatal prognozni aniqlashda muhim diagnostik mezonlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Bachadon ichi infeksiyasi kuzatilgan holatlarda yo‘ldoshning xorion vorsinlarida yuzaga keladigan patomorfologik o‘zgarishlarni morfologik baholash.

Material va usullar: Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Respublika patologik anatomiya markazida amalga oshirildi. Tadqiqot materiali sifatida 2023–2024-yillar davomida bachadon ichi infeksiyasi tashxisi bilan yakunlangan 35 ta yo'ldosh namunasi o'rganildi. Olingan materiallar 10% neytral formalin eritmasida 48–72 soat davomida fiksatsiya qilinib, standart gistologik ishlov berish bosqichlaridan o'tkazildi. Namunalar o'suvchi konsentratsiyadagi spirtlarda suvsizlantirilib, parafin bloklarga quyildi. Tayyorlangan gistologik kesmalar gematoksilin va eozin usulida bo'yaldi. Preparatlar yorug'lik mikroskopiyasi hamda morfometrik tahlil usullari yordamida baholandi.

Tadqiqot natijalari va muhokama: O'tkazilgan morfologik tekshiruvlar natijasida homila ichi infeksiyasi bilan kechgan yo'ldoshlarda bir qator xarakterli strukturaviy o'zgarishlar aniqlandi. Yallig'lanish komponenti xorion vorsinlari va desidual to'qimalarda limfotsitar hamda neytrofil hujayrali infiltratsiya bilan namoyon bo'ldi. Ayrim kuzatuvlarda desiduit belgilari yaqqol ifodalanganligi qayd etildi. Vorsinlar stromasida interstitsial shish, fibroz jarayonlari hamda degenerativ-distrofik o'zgarishlar kuzatilib, ularning strukturaviy yaxlitligi buzilganligi aniqlandi. Mikrosirkulyator tizimda arteriola va venulalar endoteliysining shikastlanishi, tomir devorining morfologik o'zgarishlari hamda mikrotrombozlarning keng tarqalganligi qayd etildi. Gemodinamik buzilishlar fibrinoid massalarning cho'kishi, intervilloz va tomir ichi trombozlari hamda turli hajmdagi infarkt o'choqlarining shakllanishi bilan tavsiflandi. Shuningdek, yo'ldoshda kompensator-gipoksik qayta tuzilish belgilari aniqlanib, vorsin kapillyarlari zichligining kamayishi va ayrim vorsinlarda avaskulyarlik elementlari kuzatildi. Mazkur morfologik o'zgarishlar yo'ldoshning gaz almashinuvi va trofik funksiyasining pasayganligini ko'rsatadi.

Xulosa: Bachadon ichi infeksiyasi yo'ldoshda yallig'lanish, degenerativ-distrofik, trombotik hamda gemodinamik buzilishlarning

ilmiy –amaliy anjuman

kompleks rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Xorion vorsinlarida yallig‘lanish infiltratsiyasi, stromal shish, fibroz, endoteliy shikastlanishi va obliterativ angiopatiyalar yo‘ldosh funksional yetishmovchiligining morfologik asosini tashkil etadi hamda homila gipoksiyasi va homila ichi o‘sishtan orqada qolish sindromining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Aniqlangan patomorfologik o‘zgarishlarning ifodalanish darajasi infeksiyalar jarayonining og‘irligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u perinatal natijalarni prognozlash va klinik tashxisni morfologik jihatdan asoslashda muhim diagnostik mezon hisoblanadi.